

## TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI

**ISKANDAROV ISLOMBEK ShUKUROVICH**

*GulDU "Sport turlari o'kitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlaridan biri – bu pedagoglarning zamon talablariga xamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlari ayniqsa boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini yanada faolroq, ma'sulyatliroq bo'lish talab etilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kreativ faoliyatini rivojlantirishda ualuksiz malaka oshirishlarni tashkil etishlar kiradi.<sup>1</sup>

O'quvchilarni kichik yoshdan boshlab mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish shart-sharoitlarini yaratish o'qituvchidan zamonaviy o'qitish texnologiyasi asoslarini bilishni, ularni amalda qo'llay olishni talab etadi. O'quvchilarning yangi bilimlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlari kun sayin ortib bormoqdaki, bu ehtiyojlarni, ularning bilimga bo'lgan chanqoqligini qondirish, albatta, biz o'qituvchining qay darajada izlanishi va o'z ustida ishlashiga bog'liq.

Bugungi ta'lim tizimida darslarni samarali tashkil qilish nafaqat o'qituvchiga balki o'quvchilarga ham bog'liqdir. O'quvchilar faol, harakatchan va kreativ bo'lsalar shu darslar samarali natija beradi. Kreativ fikrlash bu g'oyalar berishdan ham kattaroq narsadir.<sup>2</sup>

Ta'lim jarayonida "Yangi pedagogik texnologiyalar", "Innovatsion uslublar", "Interaktiv metodlar" kabi atamalarning lug'atimizga kirib kelganligi va ulardan keng foydalanish davr taqozosiga aylanganligi ko'pchilikka sir emas. Biz quyida ta'limning barcha sohalariga kirib kelgan interaktiv metodlar haqida so'z yuritmoqchimiz.

Ta'lim oluvchilarning innovatsion qobiliyati uning yaratuvchilik qobiliyati shakllanganligi darajasi bilan belgilanadi. O'zbekiston ta'lim tizimining innovatsion qobiliyati hozirgi kunda o'zining ilg'orligi bilan amaliyotda sinab ko'rilgan o'qitishning yangi metodi va usullarni-interaktiv usullarini ta'lim jarayoniga tatbiq

<sup>1</sup> N.B. Nuraliyeva, Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. International Journal of Social Science Research and Review. Volume 5, Issue 5, May, 2022, Pages: 259-264.

<sup>2</sup> N Nuraliyeva. [Darslarda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish](#)  
Science and innovation 1 (B8), 1423-1426

etishda ko‘rinadi. Ko‘pgina metodik innovatsiyalar ta‘limning interaktiv metodlari bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

“Interaktiv” so‘zi ingliz tilidagi “Interakt” so‘zidan olingan bo‘lib, “Inter”- birgalikda, o‘zaro, “akt”- harakat ma‘nosini bildiradi, ya‘ni o‘zaro birgalikdagi harakat, faoliyat yoki suhbat, dialog tartibida bo‘lishni (masalan, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-kompyuter) ifodalaydi. Interaktiv ta‘lim metodi, bu-dialogik ta‘lim bo‘lib, u o‘quvchi va o‘qituvchi yoki o‘quvchi va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro birgalikdagi faoliyat jarayonini ko‘zda tutadi.

Zamonaviy an‘anaviy ta‘lim tizimi jiddiy qayta qurishni talab qiladi, chunki zamonaviy sharoitda informatsion va doimiy xarakterini taqqoslaydi, shaxsiy sharoitda va jamiyatni shakllantiradi, uslubiy, tizimli, ijodiy fikrlash bilan ijodiy shaxsiyat kerak. Bolani ijodkor shaxsga aylantirish pedagogik jarayon texnologiyasiga bog‘liq. Axborot reproduktiv o‘quv jarayonida muammo-ijodiy va ijodiy o‘zgarishlar.<sup>3</sup> Mazkur o‘qitish metodi-bilish faoliyatini maxsus shaklda tashkil etish demakdir. Interaktiv o‘qitish metodi ta‘lim jarayonining oldindan belgilangan aniq maqsadi bo‘lishini, ular bo‘laklarga ajratilishini taqozo etadi. SHunday maqsadlardan biri-ta‘lim sharoitini qulay va yoqimli bo‘lishini ta‘minlashdir. O‘quvchi darsda to‘la o‘zlashtirish imkoniyati borligini hamda mazkur masalaning o‘zlashtirish usulini, mazkur masalani ishlashga intellektual salohiyati etarli ekanligini his qilishi alohida ahamiyatga ega. SHunday yoqimli psixologik iqlimda ta‘lim jarayoni mahsulli faoliyatga aylanadi. Interaktiv o‘qitish metodini qo‘llash jarayonida o‘quvchilarning barchasi bilish jarayonida faol qatnashadilar, ular o‘zlari bilgan, esga tushirgan, o‘ylagan ma‘lumotlariga tayanishlari, ulardan bilish jarayonida foydalanishlari mumkinligini tushunadilar va shunga moslashadilar. Birgalikdagi aqliy bilish, izlanish faoliyatida har bir o‘quvchi shaxsan ishtirok etib, unga o‘z hissasini qo‘shadi. Bilimlari, g‘oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlari, faoliyat ko‘rsatish usullari bilan o‘quvchilar o‘zaro fikr, tajriba almashadilar. O‘zaro fikrlashish, tajriba almashish jarayoni samimiy, sidqidildan o‘zaro qo‘llab-quvvatlashdek iliq ruhiy iqlimda bo‘lib o‘tsa, bu holat nafaqat yangi bilim olishni ta‘minlaydi, balki bilish faoliyatini oshiradi, faollashtiradi, ularni bilish jarayonidagi hamkorligini mustahkamlaydi. Darslardagi interaktiv faoliyat 5 ta asosiy elementlardan tashkil topadi.

1. Ijobiy-samimiy o‘zaro bog‘liqlik.
2. Guruh ichida shaxsiy mas‘uliyatlilik.
3. Bir-biriga ta‘sir etuvchi o‘zaro faoliyat.
4. Hamkorlikda ishlash malakasi.
5. Guruhda ishlash.

<sup>3</sup> Nuraliyeva N. B. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TRIZ-TEKNIKASINI QO‘LLANISHI | JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS 1.Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Journal of new century innovations | Volume-7 | 79-80-betlar.

Interaktiv metod bir kishining fikri, chiqishlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishni ta'qiqalaydi. Barcha o'qituvchilardan o'quvchilarning har birini o'ziga xos qarashi, fikri, xulosasi borligini hisobga olishni, hurmat qilishni talab etadi. Dialogik ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni, holatlarni tahlil qilish, ma'lumotlarga tayanish orqali alternativ fikr ustida mulohaza yuritish, o'ylab xulosa chiqarish, munozaralarda faol qatnashish va boshqalar bilan muloqotga kira olishni o'rganadilar. SHuning uchun darslarda o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhlarda, juftlikda ishlash, birgalikda izlanish rejasini tuzish, rolli o'yinlarda, kichik sahna ijrolarida ishtirok etish, ijodiy ishlardan foydalanish kabilar uyushtiriladi.

Interaktiv metod bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni ish beruvchilar talabi darajasidagi umumiy intellektual rivojlanishini hamda ijtimoiy ko'nikma va malakaga ega bo'lgan, har doim faollik ko'rsatishdek sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxs sifatida tarbiyalanib, voyaga etishini ta'minlaydi. Interaktiv metodning afzalligi, samaradorligi shundaki, darslarda o'quvchilar nafaqat g'oyalar, qarashlar va berilgan baholarga o'z fikrlarini bildiradilar, balki ulkan ma'lumotga ega bo'lish salohiyatlarini faollashtirish va o'quv jarayonidagi ijobiy vazifaga taalluqli musobaqada o'z kuchlaridan to'la foydalanishni o'rganadilar. Guruhning intellektual kuchi bir o'quvchining intellektual kuchi miqdoridan doimo yuqori bo'ladi.

Interaktiv o'qitish metodi sinfda sheriklik atmosferasini yaratish uchun aniq imkoniyatlarga ega. U yaxshi dars o'tishning tayyor retsepti bo'lmasdan, mazkur o'qitish metodiga asoslangan ta'lim texnologiyasi, o'qituvchi va o'quvchilarni ijodiy muallifdoshi tartibida ishlashga o'rgatadi. Natijada o'quvchi hayotning, ishlab chiqarishning har qanday o'zgarishlariga ko'ra o'zini standart bo'lmagan xulosa va qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish malakasini egallaydi.

#### **Interaktiv o'qitish metodi o'qituvchiga:**

- dars mavzusiga o'quvchilarni qiziqtirish;
- o'quv materialini birmuncha mustahkam o'zlashtirilishiga erishish;
- analitik fikrlashni rivojlantirish;
- aloqa o'rnatish, muloqotga kiritish malakasini shakllantirish;
- barcha o'quvchilarni o'quv faoliyatida faol qatnashishlari uchun sharoit yaratish;
- o'quv guruhida yoqimli, hammaga ma'qul ruhiy iqlim yaratish

imkonini beradi. Pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya ishining muvaffaqiyati o'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirib borishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Kasbiy mahoratni takomillashtirish o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bir qancha sifatlarni – uning aql-zakovati, irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos ijobiy xususiyatlarni yuzaga kelishiga yordam beradi. Bu xususiyatlar tufayli qobiliyatli va

mahoratli o'qituvchi muvaffaqiyatli ishlaydi va oz mehnat sarflab katta natijaga erishadi. Pedagoglik faoliyatini endigina boshlagan yosh o'qituvchi hali yaxshi natijalarga erisha olmasligi mumkin. Buning sababi unda pedagoglik qobiliyatining yo'qligi emas, balki pedagoglik ko'nikma va malakasining etarli bo'lmasligidir. Agar o'qituvchi havas bilan aql yuritib astoydil ishlasa kasbiy mahoratini oshirishga xarakat qilsa bunday ko'nikma va malaka albatta paydo bo'ladi. O'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish yo'nalishlari orasida uning innovatsion faoliyati etakchi o'rinni egallaydi. Innovatsiya – bu yangi texnologiyalarga, yangi ishlab chikarish omillariga tatbiq etilgan yangi bilimlardan foydalanish (yoki ma'lum bilimlardan yangicha foydalanish) yuli bilan yangi ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakat yoki bunday harakat natijasi (yoki avvalgi ehtiyojni ancha samarali qondirishning yangi yo'lini taklif etish)dir. SHunday qilib har bir zamonaviy o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur. Bu innovatsion kompetentlik pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish muximdir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azixodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – T., 2000.
2. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003 y.
3. Ishmuhamedov R., va boshq. Ta'limda innovatsion T: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009y.
4. N.B. Nuraliyeva, Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. International Journal of Social Science Research and Review. Volume 5, Issue 5, May, 2022, Pages: 259-264.
5. N Nuraliyeva. [Darslarda o'quvchilarning kretiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish](#) Science and innovation 1 (B8), 1423-1426.
6. Nuraliyeva N. B. Boshlang'ich ta'limda triz-texnikasini qo'llanishi | journal of new century innovations 1.Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Journal of new century innovations | Volume-7 |79-80-betlar.